

AHOLI DEMOGRAFIK HOLATINING O'ZGARISHI

Urokov Firdavs Ortikniyozovich

Assistant of the Samarkand Institute of Economics and Service

Xamitov Dilshodbek Obid O'g'li

Student of the Faculty of Service of the Samarkand Institute of Economics and Service

A R T I C L E I N F O.

Kalit so'zlar: aholi soni, demografiya, integratsiya, tug'ilish ko'satkichi, vafot etganlar soni, aholi tarkibi, urbanizatsiya jarayoni, alohi tabiy o'sishi, muvozanat, ko'satkichlar yangilanishi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, migratsiya saldosи.

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida demografik ko'rsatchiklarning 2020-yil va 2023-yildagi o'zgarishi keltirib o'tilgan. O'zbekiston Respublikasi va viloyatlar kesimida aholi sonining o'zgarishi, tug'ilish va vafot etish kabi ko'rsatkichlarning yangilanishini ko'rishingiz mumkin.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl> © 2024 LWAB.

KIRISH

Bugungi kunda dunyo mamlakatlari e'tibori qaratilgani kabi O'zbekiston Respublikasi ham demografik holatiga katta e'tibor qaratib kelmoqda. Demografik holatni muvozanatda ekanligini aniqlash bo'yicha statistik tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Aholini statistik o'rganishning iqtisodiy-ijtimoiy jihatlari juda ko'p bo'lib, iqtisodiy tarmoqlarning rivojlanishida ishchi kuchi muvozanati ham demografik holatning muvozanati bilan uzviy bog'liqdir. Shuningdek, iqtisodiy jihatdan ham barcha ko'rsatkichlar bilan uzviy bog'langanligi sabab aholining demografik holati hukumat darajasida katta e'tibor qaratilmoqda. 2025–2026-yillarda O'zbekistonda aholini ro'yxatga olish ishlari o'tkazilishi rejalashtirilmoqda. Bu haqda 2024 yil 4 mart kuni prezident imzolagan qaror ilovasida belgilab qo'yilgan¹.

Prezident qarori bilan tasdiqlangan rasmiy statistika sohasida islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha yo'l xaritasida Prezident huzuridagi Statistika agentligiga 2025–2026-yillarda aholini ro'yxatga olish ishlarini tashkil etish vazifasi yuklatilgan.

Yo'l xaritasida 2024 yil davomida agentlik aholini ro'yxatga olishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish ishlarini davom ettirishi belgilangan.

Bugungi kunda mamlakatimiz demografik o'sishi yuqori bo'lgan yosh rivojlanib borayotgan mamlakatlar qatoriga kiradi. O'zbekiston Respublikasi yanada rivojlanishi bo'yicha taraqqiyot maqsadi va vazifalari ham ishlab chiqilgan bo'lib bu yo'lда demografik tuzilishga ham asosiy e'tibor qaratilgan. Shunga ko'ra, Respublikamiz iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishining joriy va istiqboldagi chora-tadbirlarini belgilashda demografik jarayonlarning ta'sirini har tomonlama hisobga olish, qitisodiy rivojlanish dasturlarini ushbu jarayonlar ta'siri nuqtai-nazaridan shakllantirish va ularni izchil amalga oshirishni taqozo etmoqda. Shu nuqtai nazardan hozirgi davrda aholi sonining kamayib ketishi yoki o'ta darajada

¹ <https://lex.uz/ru/docs/6826200>

o'sib ketishi kelajakdag'i bir necha o'ng yillikga uzviy ta'sir o'tkazadi. Shu sababli aholi demografik holati muvozanatda bo'lishi zarur.

Davlat statistika qo'mitasi e'lon qilgan O'zbekistonning demografik o'zgarishidan ko'rish mumkinki, pandemiya sharoiti aholi o'sishiga katta ta'sir o'tkazdi.

Kasallanish oqibatlarida aholi soni keskin kamayib ketdi. Bunday sharoitda tug'ilish sonining ko'payishi yordamidagina aholi demografiyasini muvozanatda ushlab turishga erishish mumkin.

Umumiy tug'ilayotgan bolalar soni ham kamayishini kuzatish mumkin, bunda homilador ayollarning kasallanishi oqibatida tug'iladigan bolalarning o'lik tug'ilishi, ona qornida rivojlanmay qolishi, kasallikka uchrab dunyoga kelishi oqibatida kasallikdan erta vafot etishi ham uchradi.

Respublikada doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi 2020-yil yanvar-mart holatiga ko'ra quyidagicha²:

| T/r | Viloyatlar | Tug'ilganlar soni | Vafot etganlar soni | 2020-yil aholi soni |
|-----|----------------------------------|----------------------|------------------------|------------------------|
| 1 | Samarqand viloyati | 20 400 | 3 800 | 3 928 700 |
| 2 | Farg'ona viloyati | 18 700 | 4 100 | 3 802 700 |
| 3 | Qashqadaryo viloyati | 17 900 | 3 000 | 3 318 000 |
| 4 | Andijon viloyati | 16 400 | 3 700 | 3 172 100 |
| 5 | Toshkent viloyati | 14 000 | 4 000 | 2 977 800 |
| 6 | Namangan viloyati | 14 700 | 3 700 | 2 852 300 |
| 7 | Surxondaryo viloyati | 14 900 | 2 700 | 2 667 300 |
| 8 | Toshkent shahri | 12 100 | 4 000 | 2 654 600 |
| 9 | Buxoro viloyati | 8 000 | 1 900 | 1 939 600 |
| 10 | Qoraqalpog'iston Respublikasi | 8 300 | 1 900 | 1 916 100 |
| 11 | Xorazm viloyati | 7 900 | 1 900 | 1 884 100 |
| 12 | Jizzax viloyati | 8 100 | 1 300 | 1 403 200 |
| 13 | Navoiy viloyati | 4 600 | 1 100 | 1 009 300 |
| 14 | Sirdaryo viloyati | 4 400 | 900 | 856 900 |

Tug'ilish. 2020-yilning yanvar-mart oylarida 170,4 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (faqt tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 20,2 promilleni tashkil etdi hamda 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,8 promillega oshganligi kuzatildi (2019-yilning yanvar-mart oylarida 19,4 promille bo'lgan).

Vafot etganlar. 2020-yilning yanvar-mart oylarida 37,5 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,4 promilleni tashkil etdi, 2019-yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega tushganligi (2019-yilning yanvar-mart oylarida 4,5 promille bo'lgan) kuzatildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar (yanvar-mart, ming kishi) 2019-y. 2020-y.

| T/r | Ko'rsatkichlar | Yanvar | Mart |
|-----|--------------------------|---------|---------|
| 1 | Doimiy aholi soni | 33376,7 | 34036,8 |
| 2 | Tug'ilganlar | 159,5 | 170,4 |
| 3 | Vafot etganlar | 36,9 | 37,5 |
| 4 | Aholining tabiiy o'sishi | 122,6 | 132,9 |

² https://stat.uz/uploads/docs/demografiya_mart_uz.pdf

| | | | |
|---|-----------------------------------|------|------|
| 5 | Kelganlar | 41,2 | 40,1 |
| 6 | Ketganlar | 42,6 | 41,5 |
| 7 | Migratsiya saldosı | -1,4 | -1,4 |
| 8 | Tuzilgan nikohlar, ming birlik | 53,6 | 49,5 |
| 9 | Nikohdan ajralishlar, ming birlik | 8,0 | 7,8 |

Respublika hududlari kesimidagi statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, 2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, hududlarning respublika jami aholisi sonidagi ulushi bo'yicha eng ko'p ko'rsatkich Samarqand viloyatida 11,4 foizni, keyingi o'rnlarda Farg'ona viloyati 11,1 foizni Qashqadaryo viloyati 9,7 foizni va Andijon viloyati 9,2 foizni tashkil etdi.

Respublikada doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi 2023-yil yanvar-mart holatiga ko'ra quyidagicha³:

| T/r | Viloyatlar | Tug'ilganlar soni | Vafot etganlar soni | 2023-yil aholi soni |
|-----|-------------------------------|-------------------|---------------------|---------------------|
| 1 | Samarqand viloyati | 25 291 | 4 434 | 4 137 900 |
| 2 | Farg'ona viloyati | 23 409 | 4 264 | 3 994 800 |
| 3 | Qashqadaryo viloyati | 22 306 | 3 841 | 3 499 100 |
| 4 | Andijon viloyati | 19 351 | 3 516 | 3 338 200 |
| 5 | Toshkent viloyati | 16 713 | 3 247 | 3 700 000 |
| 6 | Namangan viloyati | 18 592 | 3 094 | 3 012 500 |
| 7 | Surxondaryo viloyati | 19 594 | 3 325 | 2 821 900 |
| 8 | Toshkent shahri | 18 935 | 3 273 | 2 978 200 |
| 9 | Buxoro viloyati | 9 842 | 2 181 | 2 016 600 |
| 10 | Qoraqalpog'iston Respublikasi | 9 804 | 2 350 | 1 981 800 |
| 11 | Xorazm viloyati | 9 654 | 2 156 | 1 965 200 |
| 12 | Jizzax viloyati | 9 725 | 1 547 | 1 483 100 |
| 13 | Navoiy viloyati | 6 266 | 917 | 1 060 600 |
| 14 | Sirdaryo viloyati | 5 546 | 900 | 900 900 |

O'zbekiston Respublikasida 2023- yil 1- aprel holatiga 1 kvadrat kilometrga o'rtacha 80,6 kishi to'g'ri kelgan. Bu esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan solishtirilganda 1,7 kishiga ortgan (2022- yil 1-aprel holatiga 1 kv.km.ga 78,9 kishi).

Statistika qo'mitasi e'lon qilgan ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, 2023-yil aholi demografik holati muvozanat darajasi o'z o'rniغا tusha boshladi.

Tug'ilganlar sonini aniqlashda Oila kodeksiga muvofiq, tug'ilgan chaqaloqning onasi yoki otasining doimiy yashash joyiga qarab tug'ilgan hududi aniqlanadi hamda o'sha hududning aholisi soniga qo'shiladi;

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari;

Pandemiya davridan o'tilgan aholi soni ko'payishi kuzatildi.

³ https://stat.uz/images/demografiya-press-reliz-27_04_2023-uzb-.pdf

Bu ko'rsatkich viloyatlar kesimida 2020-yilga nisbatan o'zgarishi foiz ko'rsatkichda.

| T/r | Viloyatlar | 2020-yil aholi soni | 2023-yil aholi soni | Vafot etganlar soni |
|-----|-------------------------------|---------------------|---------------------|---------------------|
| 1 | Samarqand viloyati | 3 928 700 | 4 137 900 | +5.3% |
| 2 | Farg'on'a viloyati | 3 802 700 | 3 994 800 | +5.0% |
| 3 | Qashqadaryo viloyati | 3 318 000 | 3 499 100 | +5.4% |
| 4 | Andijon viloyati | 3 172 100 | 3 338 200 | +5.2% |
| 5 | Toshkent viloyati | 2 977 800 | 3 007 000 | +1.0% |
| 6 | Namangan viloyati | 2 852 300 | 3 012 500 | +5.6% |
| 7 | Surxondaryo viloyati | 2 667 300 | 2 821 900 | +5.7% |
| 8 | Toshkent shahri | 2 654 600 | 2 978 200 | +12.1% |
| 9 | Buxoro viloyati | 1 939 600 | 2 016 600 | +5.2% |
| 10 | Qoraqalpog'iston Respublikasi | 1 916 100 | 1 981 800 | +3.4% |
| 11 | Xorazm viloyati | 1 884 100 | 1 965 200 | +4.3% |
| 12 | Jizzax viloyati | 1 403 200 | 1 483 100 | +5.7% |
| 13 | Navoiy viloyati | 1 009 300 | 1 060 600 | +5.1% |
| 14 | Sirdaryo viloyati | 856 900 | 900 900 | +5.1% |

Xulosa.

Aholi bandlik darajasi makroiqtisodiy ko'rsatkich sifatida mamlakat iqtisodiyotiga baho berishda foydalanilsa, ijtimoiy jihatdan esa bu aholining farovonlik darajasini ko'rsatib beruvchi ko'rsatkich hisoblanadi. Shu sababli, aholi bo'yicha statistik ma'lumotlarni shakllantirishda aholini to'liq qamrab olish barcha hududiy va ma'muriy birliklar to'g'risida to'liq, deyarli xatosiz ma'lumot olish zarur hisoblanadi. Shu sababli, aholini ro'yhatga olish juda katta ahamiyatga ega jarayon hisoblanadi. Odatda, har o'n yilda bir marta o'tkaziladigan aholini ro'yxatga olish mamlakatimizda, 1989-yilgi Butun ittifoq aholini ro'yxatga olish tadbirlaridan so'ng, 2025-2026-yillarda aholini ro'yxatga olish tadbirlari o'tkazilishi rejalashtirilgan. Bundan ko'rishimiz mumkunki aholini ro'yxatga olish ko'p vaqt va katta mablag' talab qiladi. Aholi soni bilan bog'liq ma'lumotlarni shakllantirishda aholini ro'yhatga olish jarayonlari ko'p jihatdan muhimligini inobatga olib, ushbu statistik ko'rsatkichlarni aniqlilik darajasini oshirish uchun ma'lumotlar bazasini raqamlashtirilgan tizimlar yordamida to'plash zarur deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2022-yil
- "Iqtisodiyot". – 2014. – 364 b.
- "Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash jarayonida ishlab- 272 c.
- 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning
- X.X. Abduramanov. Demografik jarayonlar xavfsizligi konsepsiysi.
- Q.X.Abdurahmonov va boshqalar. Demografiya. Darslik. – T.: amaliy anjumani materiallari to'plami – T.: TDIU, – 2018. 248-250 betlar.
- BMT Aholishunoslik jamg'armasi ma'lumotlari. 2020 yil. <http://lex.uz> chiqarish xarajatlarini kamaytirishning metodologik asoslari". Respublika ilmiy - dinamikalar va kutilayotgan o'zgarishlar. Scientific progress. 109-116 b.
- Sh. Zokirov. O'zbekistonda asosiy demografik ko'rsatkichlar: mavjud taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <http://lex.uz>

9. Борисов В.А. Демография. – М.: Издательский дом НОТА ВЕНЕ, – 2009.
10. <http://www.scientificprogress.uz>
11. <http://www.lex.uz>
12. <http://www.stat.uz>